

KROSSMADANIY MULOQOTDA LISONIY TO'SIQLAR

Zayniddinova Sevinch Davlatjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18925823>

Annotatsiya. Mazkur maqolada krossmadaniy muloqotda yuzaga keladigan lisoniy to'siqlar lingvistik va lingvomadaniy nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda lisoniy to'siqlarning asosiy turlari (leksik-semantik, grammatik-sintaktik, pragmatik va frazeologik xususiyatlari) ko'rib chiqiladi hamda ularning sabablari turli tillar va madaniyatlar (jumladan, o'zbek, ingliz, turk va boshqa tillar) misollarida yoritiladi.

Kalit so'zlar: krossmadaniy muloqot, lisoniy to'siqlar, semantik tafovut, lingvistik tahlil, frazeologizm, idiomalar, grammatik farqlar, pragmatik tafovut, nutq uslubi, madaniy kontekst, lingvokulturologik tahlil.

XXI asr globallashuv jarayonlari natijasida turli millat va madaniyat vakillari o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqalar keskin faollashdi. Xalqaro hamkorlik, migratsiya, ta'lim almashinuvi va raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi krossmadaniy muloqotni zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylantirdi. Biroq madaniyatlararo muloqot jarayoni har doim ham bir maromda kechmaydi.

Ushbu jarayonda til bilan bog'liq muammolar ya'ni lisoniy to'siqlar kommunikativ samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Krossmadaniy muloqot — turli millat, til va madaniyat vakillari o'rtasida sodir bo'ladigan axborot almashinuvi jarayonidir. Bu muloqotda suhbatdoshlar nafaqat turli tillarda gaplashishi mumkin, balki ularning qadriyatlari, urf-odatlar, dunyoqarashi va nutq uslubi ham farq qiladi. Shuning uchun bunday muloqot oddiy suhbatdan murakkabroq hisoblanadi. Lisoniy to'siqlar nafaqat so'z boyligi yoki grammatik bilim yetishmasligi bilan, balki leksik-semantik tafovutlar, frazeologik birliklar, madaniy kontekstdagi farqlar, nutq uslublari va pragmatik xususiyatlar bilan ham bog'liqdir.

Turli madaniyat vakillari bir xil til birliklarini turlicha talqin qilishi yoki nutqning yashirin ma'nosini noto'g'ri anglashlari mumkin. Natijada kommunikativ muvaffaqiyatsizlik, tushunmovchilik yoki hatto ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga keladi. Til shunchaki so'zlar to'plami emas, u butun bir madaniyatning dunyoni idrok etish usuli, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy qoidalarining ko'zgusidir. Turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasidagi aloqada nafaqat grammatika yoki lug'at farqlari, balki so'zlarning madaniy ma'nolari, nutqning yashirin qatlamlari, pragmatik normalar va hatto sukutning o'zi ham jiddiy to'siqqa aylanishi mumkin. Lisoniy to'siqlar nafaqat so'z boyligi yoki grammatik bilim yetishmasligi bilan, balki leksik-semantik tafovutlar, frazeologik birliklar, madaniy kontekstdagi farqlar, nutq uslublari va pragmatik xususiyatlar bilan ham bog'liqdir. Turli madaniyat vakillari bir xil til birliklarini turlicha talqin qilishi yoki nutqning yashirin ma'nosini noto'g'ri anglashlari mumkin. Natijada kommunikativ muvaffaqiyatsizlik, tushunmovchilik yoki hatto ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga keladi.

Krossmadaniy muloqot jarayonida eng murakkab va ko'p uchraydigan lisoniy to'siqlardan biri *semantik tafovut*dir. Semantik tafovut turli til va madaniyatlarda bir xil til birligining ma'no hajmi, mazmuni hamda konnotativ xususiyatlarining farqlanishi bilan tavsiflanadi.

Bunda muammo faqat soʻzning lugʻaviy maʼnosida emas, balki uning ortida turgan madaniy tajriba, ijtimoiy qadriyat va tafakkur tarzidagi tafovutlarda namoyon boʻladi.

Avvalo, semantik tafovut koʻp maʼnolilik (polisemiya) hodisasi bilan bogʻliq holda yuzaga keladi. Bir til birligi turli kontekstlarda turlicha maʼno anglatishi mumkin. Agar suhbatdoshlar ushbu maʼno variantlaridan qaysi biri nazarda tutilganini aniq anglamasa, kommunikativ uzilish yuz beradi. Masalan, ingliz tilidagi *“public school”* iborasi AQSh madaniyatida *“davlat maktabi”* maʼnosini bildiradi. Biroq Buyuk Britaniyada aynan shu ibora nufuzli, xususiy va pullik maktabni anglatadi. Agar suhbat jarayonida ushbu farq hisobga olinmasa, notoʻgʻri tasavvur shakllanadi.

Demak, shaklan bir xil birlik turli lingvomadaniy hududlarda qarama-qarshi mazmunga ega boʻlishi mumkin.

Yana bir misol — oʻzbek tilidagi *“aka”* soʻzi. U nafaqat biologik katta aka maʼnosini, balki hurmat ifodasi sifatida begona, yoshi katta erkakka nisbatan ham qoʻllanadi. Ingliz tilidagi *“brother”* esa asosan qarindoshlik munosabatini bildiradi. Agar *“aka”* soʻzi toʻgʻridan-toʻgʻri *“brother”* deb tarjima qilinsa, hurmat maʼnosi yoʻqoladi va semantik torayish yuz beradi.

Krossmadaniy muloqotda frazeologizmlarning ham oʻrni katta. Frazeologizmlar — bu tilda tayyor holda qoʻllanadigan, maʼnosi tarkibidagi soʻzlarning toʻgʻridan-toʻgʻri lugʻaviy maʼnosidan kelib chiqmaydigan barqaror birikmalardir. Ular milliy tafakkur, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlarning mahsuli sifatida shakllanadi. Shu sababli bir tilga xos frazeologik birlik boshqa til vakili tomonidan soʻzma-soʻz qabul qilinganda, mazmun buzilishi yoki toʻliq yoʻqolishi mumkin.

Masalan, ingliz tilidagi *“break the ice”* idiomasi soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, *“muzni sindirmoq”* degan maʼnoni anglatadi. Biroq aslida u *“suhbatni boshlash”*, *“rasmiy muhitni yumshatish”* degan koʻchma maʼnoda qoʻllanadi. Agar ushbu ibora madaniy kontekstsiz qabul qilinsa, u tushunarsiz yoki notoʻgʻri talqin qilinadi. Yana bir misol: *“hit the books”* iborasi soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, *“kitoblarni urmoq”* degan maʼnoni bildiradi. Biroq uning haqiqiy frazeologik maʼnosi — *“jiddiy oʻqishni boshlamoq”*, *“dars qilishga kirishmoq”* deganidir. Agar bu ibora lingvomadaniy kontekstni hisobga olmasdan qabul qilinsa, mazmun mutlaqo notoʻgʻri anglashiladi. Chunki bu yerda *“hit”* feʼli real harakatni emas, balki kuchli darajada kirishish maʼnosini ifodalaydi. Demak, iboraning umumiy maʼnosi tarkibiy qismlarining lugʻaviy yigʻindisidan kelib chiqmaydi. Oʻzbek tilida ham shunga oʻxshash holatlar mavjud. Masalan, *“koʻngli togʻdek koʻtarildi”* iborasi insonning nihoyatda xursand boʻlganini bildiradi. Uni soʻzma-soʻz tarjima qilish orqali mazmunni toʻliq yetkazish imkonsiz, chunki bu yerda *“togʻ”* obrazli kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Tarjimada obrazlilik va emotsional taʼsir susayadi yoki yoʻqoladi.

Turk tilida ham xuddi shunday: *“pabucu dama atılmak”* idiomasi soʻzma-soʻz tarjima qilinganda *“oyoq kiyimi tomga otildi”* degan maʼnoni beradi.

Biroq uning haqiqiy maʼnosi — *“eʼtibordan qolmoq”*, *“oʻrnini boshqasi egallamoq”* deganidir.

Agar ushbu ibora lingvomadaniy kontekst hisobga olinmasdan qabul qilinsa, mazmuni mutlaqo tushunarsiz boʻlib qoladi. Chunki bu yerda *“pabuc”* (oyoq kiyimi) va *“tom”* obrazlari ramziy maʼnoda qoʻllangan. Iboraning asl mazmuni tarixiy-madaniy anʼana bilan bogʻliq boʻlib, soʻzlarning lugʻaviy maʼnosidan kelib chiqmaydi. Yana bir misol: *“kulak misafiri olmak”* iborasi soʻzma-soʻz tarjimasi *“quloq mehmoni boʻlmoq”* degani.

Ammo uning haqiqiy ma'nosi — *“bevosita murojaat qilinmagan holda suhbatni eshitib qolmoq”*. Agar bu ibora to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, ma'no buziladi. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar ham milliy tafakkur mahsuli bo'lib, ularni anglash uchun madaniy kontekst zarur. Aks holda krossmadaniy muloqotda semantik buzilish va tushunmovchilik yuzaga keladi.

Krossmadaniy muloqotda grammatik tafovutlar turli tillarning sintaktik va morfologik tizimidagi farqlar tufayli yuzaga keladi. Ushbu farqlar ba'zan mazmunning buzilishiga, ba'zan esa nutqning pragmatik ohangi noto'g'ri qabul qilinishiga sabab bo'ladi. Avvalo, so'z tartibi misolida buni ko'rish mumkin. Ingliz tilida gapning qat'iy modeli S+V+O shaklida bo'ladi:

“She opened the door.”

Agar o'zbek tilidagi sintaktik modelga ko'ra tarjima qilinsa, *“She the door opened”* shakli yuzaga keladi, bu esa ingliz tilida grammatik jihatdan noto'g'ri hisoblanadi. Demak, sintaktik tizim farqi bevosita tarjimada xatoga olib keladi. Ikkinchi muhim misol : O'zbek tilida: *“Sen keldingmi?”* va *“Siz keldingizmi?”* ushbu ikki shakl ijtimoiy masofani bildiradi. Ingliz tilida esa har ikkisi ham: *“Did you come?”* ko'rinishida ifodalanadi. Bu yerda hurmat yoki rasmiylik darajasi grammatik shaklda emas, balki ohang va kontekst orqali anglashiladi. Natijada tarjimada ijtimoiy-psixologik ma'no yo'qolishi mumkin. Turk tilida ham grammatik xususiyatlar ayrim o'ziga xosliklarga ega. Masalan: *“Geldim.”* fe'l shaklining o'ziyoq *“Men keldim”* degan to'liq ma'noni bildiradi. Ingliz tilida esa ega tushirib qoldirilmaydi: *“Came.”* deyish mumkin emas, albatta *“I came.”* deyiladi. Agar turkcha model ingliz tiliga ko'chirilsa, grammatik nuqson yuzaga keladi. Ko'rinish turibdiki, grammatik tafovutlar nafaqat shakliy farq, balki mazmun va pragmatik ohangning o'zgarishiga ham sabab bo'ladi.

Krossmadaniy muloqotda nutq uslubi va pragmatik xususiyatlar lisoniy to'siqlarning muhim qismidir. *Nutq uslubi* — bu so'z va iboralarni tanlash, gap ohangi, rasmiylik darajasi va ijtimoiy kontekstga moslash usuli bilan bog'liq hodisa. Turli madaniyatlarda bir xil kommunikativ niyat turlicha ifodalanishi mumkin, bu esa tushunmovchilik va noto'g'ri talqinlarga olib keladi.

Masalan, ingliz madaniyatida odatiy nutq uslubi to'g'ridan-to'g'ri va aniq ifoda etishga asoslanadi. *“I don't agree with you.”* — bu gap ochiq rad javobni bildiradi va bu hol madaniyat doirasida odatiy hisoblanadi. Biroq Sharq madaniyatlarida, jumladan o'zbek yoki turk madaniyatida, rad javobini bilvosita, yumshoq shaklda berish afzal ko'riladi. Masalan, o'zbek tilida: *“Bu fikrni yana o'ylab ko'rishimiz mumkin”* iborasi aslida rad ma'noni bildirishi mumkin.

Turk tilida esa *“Bakacagız.”* (Ko'ramiz.) shaklida beriladi.

Bu ba'zan aslida rad javobini bildirishi mumkin. Biroq boshqa madaniyat vakili buni haqiqiy rozilik yoki kelajakdagi reja sifatida tushunishi ehtimoli bor. Natijada noto'g'ri kutilma yuzaga keladi. Shu farq kommunikativ jarayonda nutqning asosiy niyati noto'g'ri talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlar taklif va iltimos ifodalarida ham ko'riladi. Ingliz tilida: *“Could you send me the report by tomorrow?”* (Menga ertaga hisobotni jo'nata olasizmi?) bu savol shaklida bo'lsa-da, aslida iltimos ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida esa iltimos ko'pincha bilvosita va yumshoq shaklda: *“Agar iloji bo'lsa, ertaga hisobotni yuborsangiz yaxshi bo'lardi”* tarzida ifodalanadi. Shu tarzidagi uslubiy farq, ayniqsa turli madaniyat vakillari muloqot qilganda, mazmunning noto'g'ri tushunilishiga olib kelishi mumkin.

Nutq uslubi va pragmatik xususiyatlarida lisoniy tafovutning yana bir ko‘rinishi murojaat shakli bilan bog‘liq. Masalan, ingliz tilida ism bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish odatiy: “*John, can you help me?*” Biroq o‘zbek va turk madaniyatida yoshi katta yoki maqomi yuqori shaxsga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ism bilan murojaat qilish odatiy emas; u yerda “aka”, “opa”, “ustoz” kabi shakllar ishlatiladi. Shu tarzda nutq uslubi va ijtimoiy hurmat me‘yorlarining farqlanishi muloqotning pragmatik xususiyatini o‘zgartiradi va noto‘g‘ri talqin xavfini oshiradi.

Krossmadaniy muloqotda *madaniy kontekst* — ya’ni nutq sodir bo‘layotgan jamiyatning urf-odatlar, qadriyatlari, an‘analari va ijtimoiy me‘yorlari — lisoniy to‘siqlarni yuzaga keltiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bir so‘z yoki iboraning mazmuni faqat til tizimi orqali emas, balki u ishlatilayotgan madaniy kontekst bilan birgalikda tushuniladi.

Shu sababli, madaniy kontekstni hisobga olmaslik muloqotda tushunmovchilikka, noto‘g‘ri talqinlarga va hatto konfliktlarga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz madaniyatida ochiq fikr bildirish va bevosita rad javob aytish odatiy hol hisoblanadi. Biroq o‘zbek va turk madaniyatida ochiq rad javob berish ko‘pincha madaniy jihatdan qo‘pol va noqulay hisoblanadi. Shuningdek, G‘arb madaniyatida tanish va notanish shaxslar o‘rtasida qo‘l berib salomlashish odatiy hisoblanadi.

O‘zbek madaniyatida esa qo‘l berish, quchoqlashish yoki yuzma-yuz tabriklashish madaniy munosabat va shaxsiy masofaga bog‘liq. Shuning uchun ko‘p hollarda qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib salom beriladi. Yaponiyada esa aksincha, egilib salom beriladi. Agar shu holatda salom bermasa, bu hurmatsizlik deb qaraladi. Shu sababli, muloqotda madaniy kontekstni bilmaslik notanish shaxsga nisbatan xato signal yuborilishi yoki xafsalasi pir bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ko‘z bilan aloqa shakli, davomiyligi va ma‘nosi turli madaniyatlarda farq qiladi va noto‘g‘ri talqin qilinsa, muloqotda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, Amerika madaniyatida ko‘z bilan aloqa odatda ochiqlik, ishonchlilik va e’tibor belgisi sifatida qabul qilinadi. Suhbatdosh bilan uzluksiz va muvofiq darajadagi ko‘z bilan aloqa qilish ijobiy muloqot belgisi hisoblanadi. Biroq Yaponiya madaniyatida ko‘z bilan aloqa boshqacha qabul qilinadi. Ko‘p hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘z bilan qarashni cheklash hurmat, odob va ijtimoiy masofani ifodalaydi.

Masalan, yosh shaxs yoki past maqomdagi inson yoshi katta yoki maqomi yuqori shaxsga uzoq muddatli ko‘z bilan qarashdan qochadi. Agar Yaponiya madaniyatida amerikalik kabi uzluksiz ko‘z bilan qarash amalga oshirilsa, bu beodoblik yoki qo‘pol munosabat sifatida talqin qilinishi mumkin. Turli madaniyatlarda sovg‘a tanlash, berish va qabul qilish qoidalari tubdan farq qiladi, bu esa muloqotda tushunmovchiliklar va noqulay vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Masalan, Amerika madaniyatida sovg‘a odatda shaxsiy xohish, did va munosabatni ifodalash vositasi sifatida qaraladi. Sovg‘a berish jarayoni juda rasmiy bo‘lmagan, do‘stona va ochiq tarzda amalga oshiriladi. Shuningdek, sovg‘a qiymati ko‘pincha o‘rtacha darajada bo‘lishi va uni beruvchi shaxsning shaxsiy xohishiga mos kelishi yetarli hisoblanadi. Sovg‘ani qabul qiluvchi odatda darhol ochib ko‘radi va javob sifatida minnatdorlik bildiradi.

Biroq Yaponiya madaniyatida sovg‘a berish jarayoni ancha murakkab va qat’iy madaniy qoidalarga bog‘liq. Sovg‘a berishdan oldin uning qimmati, taqsimlanish tartibi va qadoqlash uslubi diqqat bilan hisobga olinadi. Sovg‘a qabul qiluvchisi odatda uni darhol ochmaydi, bu esa hurmat va ehtiyotkorlik belgisi sifatida talqin qilinadi.

Shu bilan birga, sovgʻani qabul qiluvchi shaxs sovgʻani rad qilmaydi, hattoki u qiymati past boʻlsa ham, beruvchiga hurmatni saqlash uchun minnatdorlik bildiradi. Sovgʻa olish jarayoni krossmadaniy muloqotda ijtimoiy-psixologik va madaniy signallarni yetkazish vositasi hisoblanadi. Sovgʻaning turi, berilish shakli, qabul qilish va ochish tartibi madaniyatga bogʻliq. Shu sababli turli madaniyat vakillari oʻrtasida sovgʻa almashishda madaniy qoidalarga rioya qilish va ularni tushunish kommunikativ muvaffaqiyatning muhim omili hisoblanadi. Madaniy kontekst nutqning mazmuni, ohangi, hurmat shakllari va emotsional taʼsiri faqat til birliklaridan emas, balki u ishlatilayotgan madaniy kontekst bilan ham belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, Krossmadaniy muloqotda lisoniy toʻsiqlar nutqning samarali yetib borishiga toʻsqinlik qiluvchi asosiy omillardan biridir. Bu toʻsiqlar semantik tafovutlar, frazeologik va idiomatik birliklarning turli madaniyatlarda farqlanishi, grammatik tizimlar va nutq uslubi tafovutlari, shuningdek, madaniy kontekst va pragmatik xususiyatlarning oʻziga xosligi bilan yuzaga keladi. Ular nutq mazmunining notoʻgʻri tushunilishiga, kommunikativ niyatning yetib bormasligiga va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Shu bois, krossmadaniy muloqotda til bilimidan tashqari, madaniy kompetensiya, kontekstni anglash va pragmatik qoidalarni hisobga olish juda muhimdir. Nutqning samarali va aniq yetkazilishi uchun har bir ishtirokchi boshqa madaniyat vakilining lingvistik va madaniy xususiyatlarini tushunishi zarur. Shu tarzda lisoniy toʻsiqlarni yengib oʻtish xalqaro aloqalar, ishbilarmonlik va shaxslararo munosabatlarda muloqot samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elova D., Safarova G. Sotsiolingvistika. - Toshkent, 2021
2. Begmatov E. Oʻzbek tili sotsiolingvistikasi. – Toshkent, Fan, 2013.
3. Mengliyev B., Xoliyrov O. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2016.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Yoʻldoshev B. Badiiy matnning lingvistik tahlili. – Toshkent, 2010.